



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

Yanvar-iyun oylari 2021-yil

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining virtual qabulxonasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
100

Qo'mitaning elektron veb-sahifasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
682

O'zbekiston Respublikasi
Bosh vazirining virtual
qabulxonasi orqali kelib
tushgan murojaatlar
18

To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan
yozma murojaatlar
337



Qo'mita rahbariyatining shaxsiy
va sayyor qabulidagi kelib
tushgan og'zaki murojaatlar
130

Davlat statistika Qo'mitasiga 2021-yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 1267 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 100 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 18 ta O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi orqali, 682 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 337 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 130 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.



Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2021-yil yanvar-iyun holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



334 tasi (jamiga nisbatan 26,4 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



207 tasi (16,3 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



58 tasi (4,6 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



72 tasi (5,7 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish yuzasidan



77 (6,1 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan



2 tasi (0,2 %) qo'mita vakolatlari, faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan



484 tasi (38,2 %) Reyting va baholash masalisida Qurilish vazirligiga korxonalar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan




33 tasi (2,5 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan




Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2021-yil yanvar-iyun oylari holatiga

Jami: 1267



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 895 ta murojaatlarning 1107 tasiga chora ko'rildi, 123 tasi tushuntirildi, 37 tasi ko'rib chiqilmoqda.



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 21,5 % (273 ta) jismoniy shaxslar va 78,5 % (994 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2021-yil yanvar-iyun holatiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2020-yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2021-yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15	20
Andijon viloyati	6	66
Buxoro viloyati	21	92
Jizzax viloyati	14	36
Qashqadaryo viloyati	13	82
Navoiy viloyati	9	32
Namangan viloyati	13	46
Samarqand viloyati	10	64
Sirdaryo viloyati	10	52
Surxondaryo viloyati	15	86
Toshkent viloyati	68	91
Farg'ona viloyati	13	57
Xorazm viloyati	6	27
Toshkent shahar	431	514
Boshqa hududlardan	5	2

Davlat statistika Qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 514 ta (o'tgan yilning shu davrida 431 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 20 ta, Toshkent viloyatidan 91 ta, Farg'ona viloyatidan 57 ta, Namangan viloyatidan 46 ta, Jizzax viloyatidan 36 ta, Samarqand viloyatidan 64 ta, Andijon viloyatidan 66 ta, Qashqadaryo viloyatidan 82 ta, Surxondaryo viloyatidan 86 ta, Xorazm viloyatidan 27 ta, Sirdaryo viloyatidan 52 ta, Navoiy viloyatidan 32 ta, Buxoro viloyatidan 92 ta va boshqa hududlardan 2 ta murojaatlar kelib tushgan.

 **Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat qiling:



"Ishonch telefon"lari: (71) 202-81-80



Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 202-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi: (71) 202-81-77

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

Pochta manzili: info@stat.uz